Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 25, 2026

IMPROVING THE PROCEDURE FOR ORGANIZING AND CONDUCTING THE QUALIFICATION EXAMINATION FOR THE PRACTICE OF ADVOCACY: NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE

Adibaxon Rustamovna Boboraxmatova

Tashkent State University of Law Master's Student in Advocacy

Abstract

This article provides a comprehensive legal analysis of the regulatory framework, institutional mechanisms and procedural aspects governing the organization and administration of the qualification examination for obtaining the right to practise law in the Republic of Uzbekistan. In particular, it examines the existing challenges associated with the predominant assessment of applicants' theoretical knowledge and the insufficient evaluation of their practical skills and professional competencies. Furthermore, the article explores issues relating to the objectivity, transparency and standardization of assessment criteria in qualification examinations. A comparative legal analysis is conducted of the model's governing admission to the legal profession and professional training in Kazakhstan, Singapore and France. Based on the findings of the research, scientifically substantiated proposals and recommendations are developed to improve the qualification examination system, including the introduction of unified assessment criteria, the integration of theoretical and practical examinations, the incorporation of legal case studies and procedural document drafting assignments, the assessment of internship outcomes through an electronic professional portfolio, and the establishment of an independent assessment mechanism for legal professional ethics.

Keywords

advocacy, legal profession, qualification examination, status of an advocate, qualification commission, professional competence, professional aptitude, assessment criteria, practical skills, legal case study, professional ethics, internship, electronic professional portfolio, comparative legal analysis.

O'ZBEKISTONDA ADVOKATLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISH UCHUN MALAKA IMTIHONINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Boboraxmatova Adibaxon Rustamovna boboraxmatovaa@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti Advokatlik faoliyati yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi malaka imtihonini tashkil etish va o'tkazishning normativ-huquqiy asoslari, institutsional mexanizmlari hamda protsessual xususiyatlari kompleks ilmiy-huquqiy jihatdan tadqiq etilgan. Xususan, amaldagi malaka imtihoni tizimida talabgorlarning nazariy bilimlarini baholash ustuvorligi va ularning amaliy-kasbiy kompetensiyalarini aniqlash bilan bog'liq mavjud muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, malaka imtihonining xolisligi, shaffofligi va baholash mezonlarining bir xilligini ta'minlash masalalari o'rganilib, Qozog'iston, Singapur va Fransiya davlatlarining advokatlik kasbiga qabul qilish hamda kasbiy tayyorgarlik modellari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida malaka imtihonini takomillashtirishga qaratilgan, jumladan, yagona standartlashtirilgan baholash mezonlarini joriy etish, nazariy va amaliy sinovlarni integratsiyalash, huquqiy kazuslar hamda protsessual hujjatlar tayyorlash topshiriqlaridan foydalanish, stajirovka jarayonini elektron kasbiy portfel asosida baholash va advokatlik etikasi bo'yicha mustaqil baholash mexanizmini shakllantirish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: advokatura, advokatlik faoliyati, malaka imtihoni, advokat maqomi, malaka komissiyasi, kasbiy kompetensiya, kasbiy layoqat, baholash mezonlari, amaliy ko'nikmalar, huquqiy kazus, advokatlik etikasi, stajirovka, elektron kasbiy portfel, qiyosiy-huquqiy tahlil

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОРЯДКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИОННОГО ЭКЗАМЕНА ДЛЯ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ АДВОКАТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Боборахматова Адибахон Рустамовна
Ташкентский государственный юридический университет Магистрант направления «Адвокатская деятельность
boboraxmatovaa@gmail.com

Аннотация. В статье проведено комплексное научно-правовое исследование нормативно-правовых основ, институциональных механизмов и процессуальных особенностей организации и проведения квалификационного экзамена на получение права заниматься адвокатской деятельностью в Республике Узбекистан. В частности, проанализированы существующие проблемы, связанные с преимущественной оценкой теоретических знаний претендентов и недостаточной разработанностью механизмов определения их практических навыков и профессиональных компетенций. Особое внимание уделено вопросам обеспечения объективности, прозрачности и единообразия критериев оценивания квалификационного экзамена. Проведён сравнительно-правовой анализ моделей допуска к адвокатской профессии и профессиональной подготовки адвокатов в Республике Казахстан, Сингапуре и Франции. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию порядка проведения квалификационного экзамена, в том числе посредством внедрения единых стандартизированных критериев оценивания, интеграции теоретического и практического этапов экзамена, использования правовых казусов и заданий по составлению процессуальных документов, оценки результатов стажировки на основе электронного профессионального портфолио, а также формирования самостоятельного механизма оценки знаний претендентов в области профессиональной этики адвоката.

Ключевые слова: адвокатура, адвокатская деятельность, квалификационный экзамен, статус адвоката, квалификационная комиссия, профессиональная компетентность, профессиональная пригодность, критерии оценивания, практические навыки, правовой казус, профессиональная этика адвоката, стажировка, электронное профессиональное портфолио, сравнительно-правовой анализ.

Kirish

Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biri inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylik, tenglik va tortishuv prinsiplarini ta'minlashdan iboratdir. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishida advokatura instituti

alohida o‘rin egallaydi. Advokatura nafaqat jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatuvchi mustaqil kasbiy institut, balki shaxs huquqlarini davlat organlarining noqonuniy qarorlari, harakatlari va harakatsizligidan himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy kafolat hisoblanadi. Shu sababli advokatlik faoliyatining sifatli tashkil etilishi, avvalo, ushbu kasbga kirish mexanizmlarining qonuniy, shaffof, xolis va samarali yo‘lga qo‘yilganligiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan fundamental qoidalar bilan mustahkamlangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanganligi, qonunda nazarda tutilgan hollarda bunday yordam davlat hisobidan ko‘rsatilishi belgilangan. Shuningdek, har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan[1]. Mazkur konstitutsiyaviy qoida advokatlik faoliyatining davlat va jamiyat hayotidagi o‘rnini belgilash bilan bir qatorda, advokatlik kasbiga qo‘yiladigan malaka talablarining yuqori bo‘lishini ham taqozo etadi. Chunki malakali yuridik yordam ko‘rsatish huquqi faqat advokatning mavjudligi bilan emas, balki uning yetarli nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, kasbiy kompetensiya va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi bilan ta'minlanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi malaka imtihoni oddiy bilimlarni tekshirish jarayoni emas, balki shaxsning mustaqil yuridik kasbni amalga oshirishga kasbiy va huquqiy jihatdan tayyorligini aniqlashga qaratilgan muhim ommaviy-huquqiy tartib-taomildir. Mazkur imtihon orqali kelgusida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarning kasbiy salohiyati baholanadi. Binobarin, malaka imtihonini qabul qilish tartibining takomillashtirilishi bevosita advokatura institutining institutsional rivojlanishi, odil sudlov samaradorligi va aholining sud-huquq tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash bilan uzviy bog‘liqdir.

[1] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - 2023-yil 30-aprel

Malaka imtihonining advokatlik maqomini olishdagi ahamiyati nafaqat milliy qonunchilikda, balki huquqshunos olimlarning ilmiy qarashlarida ham keng muhokama qilingan. Xususan, o‘zbekistonlik huquqshunos olimlar B. Salomov va V. Davlyatov, xorijiy tadqiqotchilar O. Shvarts, D. Dobryakov, R. Mel'nichenko, V. Zaborovskiy, I. Golovan va M. Kosenko o‘z ilmiy ishlarida advokatlik kasbiga kirish, malaka imtihonining zarurati va uning kasbiy layoqatni aniqlashdagi o‘rnining ayrim jihatlarini tadqiq etganlar. Jumladan, A.A. Gevorgiz advokat maqomini olishda malaka imtihonini majburiy shart sifatida belgilashni to‘liq asoslangan deb hisoblaydi[2]. Uning fikricha, oliy yuridik ma'lumot va ikki yillik ish stajining mavjudligi talabgorning advokatlik faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha huquqiy masalalar bo‘yicha malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur nazariy bilimlarga ega ekanligini kafolatlamaydi. Xususan, bu holat advokatlik etikasi qoidalarini bilish va ularga rioya qilish masalasida ham namoyon bo‘ladi. Olimning ta'kidlashicha, talabgorning kasbiy bilim darajasini aniqlashning eng maqbul vositasi aynan malaka imtihonidir.

Mazkur ilmiy qarash O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan malaka imtihoni institutining huquqiy mohiyatini asoslashda muhim ahamiyatga ega. Chunki oliy yuridik ma'lumotga ega bo‘lish shaxsning muayyan huquq sohasida nazariy bilim olganligini tasdiqlasa-da, uning advokat sifatida mustaqil faoliyat yuritish, mijoz manfaatlarini himoya qilish va murakkab protsessual vaziyatlarda to‘g‘ri huquqiy yechim ishlab chiqish qobiliyatini to‘liq ifodalamaydi. Shu sababli malaka imtihoni faqat qonunchilik normalarini bilishni tekshiruvchi vosita emas, balki talabgorning kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlash mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Bir guruh olimlar ham malaka imtihonining asosiy maqsadi talabgorning malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun yetarli nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega ekanligini aniqlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar. Bu yondashuv BMTning 1990-yil avgust oyida Gavanada bo‘lib o‘tgan VIII Kongressida qabul qilingan Advokatlar roliga oid asosiy prinsiplarda ham o‘z ifodasini topgan[3]. Mazkur xalqaro hujjatga

[2] Заборовский В.В. Правовая природа квалификационного экзамена на получение статуса украинского адвоката // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения № 1 – 2017. – С. 89

[3] Адвокатура в Российской Федерации: учеб. Пособие / А.В. Гриненко, Ю.А. Костанов, С.А. Невский; под ред. А.В. Гриненко. – М.: ТК Вебли, 2003. – С. 192

muvofiq, davlatlar, advokatlarning professional birlashmalari va ta'lim muassasalari advokatlarning tegishli kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishini, kasbiy etika majburiyatlarini hamda milliy va xalqaro huquqda tan olingan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini bilishini ta'minlashi lozim.

Natijalar hamda ularning muhokamasi

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi 349-I-sonli “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni advokatlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini, advokat maqomini olish shartlarini, advokatlarning huquq va majburiyatlarini hamda advokatura faoliyatining asosiy prinsiplarini belgilab beruvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur Qonunning 3-moddasiga muvofiq, oliy yuridik ma'lumotga ega bo‘lgan va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi advokat bo‘lishi mumkin. Qonunning 3^1-moddasida esa advokat maqomiga ega bo‘lishning muhim shartlari, jumladan, advokatlik tuzilmasida kamida uch oy stajirovka o‘tash va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirish talabi belgilangan. Shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimlari, sudyalar, tergovchilar, surishtiruvchilar yoki prokuror lavozimida kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga ega bo‘lgan shaxslar uchun stajirovkadan o‘tmasdan imtihonda ishtirok etish imkoniyati nazarda tutilgan[4]. Mazkur qonunchilik normalarining mazmunidan ko‘rinadiki, advokat maqomini olish jarayonida nazariy bilim va amaliy tajribaning o‘zaro uyg‘unligi asosiy mezonlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Biroq zamonaviy huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi, qonunchilikning muntazam yangilanib borishi, sud-huquq amaliyotida yangi yondashuvlarning shakllanishi advokatlikka nomzodlarning faqat qonun normalarini bilishini emas, balki ularni muayyan huquqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish, protsessual hujjatlarni tayyorlash, dalillarni tahlil qilish, huquqiy pozitsiyani shakllantirish, mijoz manfaatlarini himoya qilish hamda kasbiy etika talablariga rioya etish qobiliyatini ham baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Advokatlik faoliyatini litsenziyalash va malaka imtihonini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar ham mavzuning

[4] O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi 349-I-son “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.

dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-sonli “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori advokatura faoliyatini raqamlashtirish va zamonaviy elektron mexanizmlarni joriy etish uchun muhim huquqiy asos yaratdi[5]. Ushbu qaror ijrosi doirasida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 432-sonli “Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan advokatlik faoliyatini litsenziyalashda “Litsenziya” axborot tizimidan yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanish, talabgorlarning elektron murojaatlarini ko‘rib chiqish va litsenziyalash jarayonlarini elektron shaklda amalga oshirish tartibi belgilandi[6].

Biroq malaka imtihonini qabul qilishning elektron litsenziyalash tizimi bilan bog‘liq holda takomillashtirilishi imtihonning mazmuni, baholash mezonlari va kasbiy kompetensiyani aniqlash usullarini ham muntazam ravishda rivojlantirishni talab etadi. Zero, hujjatlarni elektron shaklda qabul qilish va litsenziyalash jarayonlarini avtomatlashtirish imtihonning barcha bosqichlarida xolislik, shaffoflik va yagona baholash standartlari to‘liq ta'minlanganligini o‘z-o‘zidan anglatmaydi. Shu sababli malaka imtihonining tashkiliy, protsessual va metodik jihatlarini kompleks ravishda o‘rganish zarurati mavjud.

Mazkur yo‘nalishdagi huquqiy tartibga solishning yangi bosqichi sifatida O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, 2025-yil 7-iyulda 3637-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risida”gi Nizom alohida ahamiyatga ega. Mazkur Nizom malaka komissiyalarining vakolatlari, faoliyatini tashkil etish tartibi, malaka imtihonini qabul qilish mexanizmi, talabgorlarni baholash hamda komissiyalar tomonidan qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi. Nizomda malaka imtihoni

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-sonli “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

[6] O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O‘RQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni

talabgorning tanlangan ixtisoslik bo‘yicha bilim va malakasini aniqlash jarayoni sifatida ta'riflangan. Shuningdek, malaka komissiyalarining o‘z vakolatlariga kiruvchi masalalarni ko‘rib chiqishda mustaqilligi alohida mustahkamlangan[7].

Mazkur Nizomning 28-bandiga muvofiq, malaka imtihoni talabgor tizim orqali hujjat topshirgan kundan e'tiboran bir oy ichida o‘tkazilishi belgilangan. 32-bandda imtihon barcha talabgorlar uchun bitta xonada og‘zaki suhbat tarzida o‘tkazilishi, uning jarayoni audio va videoyozuvlarda qayd etilishi hamda Advokatlar palatasi yoki hududiy boshqarmalarning rasmiy veb-saytida real vaqt rejimida translyatsiya qilinishi nazarda tutilgan. Ushbu qoidalar imtihon jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, noqonuniy ta'sir ko‘rsatish ehtimolini kamaytirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan muhim huquqiy kafolatlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Nizomning 33-bandida talabgorlarning tanlagan ixtisosligiga qarab imtihon savollari yo‘nalishlari farqlanishi belgilangan. Xususan, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish ixtisosligi bo‘yicha advokatura, fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessual huquqi, iqtisodiy protsessual huquqi va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohalari qamrab olinadi. Ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish ixtisosligi bo‘yicha esa advokatura, jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi va ma'muriy javobgarlik sohalaridan savollar shakllantiriladi. Har bir ixtisoslik bo‘yicha o‘rtacha 150-200 ta savoldan iborat ro‘yxat tuzilishi va ularning qonunchilikdagi o‘zgarishlarga muvofiq yangilab borilishi belgilangan. Imtihonning beshta savoldan iborat bo‘lishi, savollarning axborot tizimi orqali tasodifiy tanlanishi va talabgorga tayyorlanish uchun 30 daqiqa vaqt berilishi ham mazkur tartibning muhim jihatlaridandir.

Nizomning 38-41-bandlarida baholashning ball tizimi asosida amalga oshirilishi, har bir savol uchun eng yuqori 10 ball qo‘yilishi va talabgor to‘plashi mumkin bo‘lgan eng yuqori ballning kamida 60 foizini to‘plagan taqdirda imtihondan o‘tgan deb hisoblanishi belgilangan. Bunda komissiya a'zolari har bir savol bo‘yicha alohida baho qo‘yadi, yakuniy ball esa axborot tizimi orqali avtomatik hisoblab chiqariladi. Bunday mexanizm baholash jarayonida inson omilining salbiy ta'sirini kamaytirish va natijalarni

[7] 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, 2025-yil 7-iyulda 3637-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi” Nizom

texnik jihatdan xolis hisoblashga xizmat qiladi[8].

Malaka imtihonining zarurati masalasida olimlar o‘rtasida turli qarashlar mavjud. Xususan, V.V. Len va V.V. Len advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi guvohnoma olinganidan keyin ham kasbiy bilimlarni muntazam tekshirib borish zarurligini ta'kidlaydilar[9]. Ularning fikricha, malaka imtihonini faqat advokatlik kasbiga kirish bosqichida bir marta topshirish bilan cheklanmasdan, har besh yoki o‘n yilda takroran o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki advokatlik faoliyati davomida qonunchilik muntazam o‘zgarib boradi, yangi huquqiy institutlar shakllanadi va sud amaliyotida yangi yondashuvlar yuzaga keladi.

Mazkur fikrni to‘liq malaka imtihonini takroran topshirish talabi sifatida qabul qilish shart emas. Biroq uning asosida advokatlarning kasbiy bilimlarini muntazam yangilab borish zarurati mavjudligini e'tirof etish mumkin. O‘zbekiston sharoitida ushbu maqsadga advokatlarning uzluksiz kasbiy ta'limi, malaka oshirish kurslari va amaliy mashg‘ulotlarini tizimli tashkil etish orqali erishish maqsadga muvofiq. Bu nafaqat advokatlikka nomzodlarning, balki amaldagi advokatlarning ham kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunga qaramasdan, mazkur tartibni ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish bir qator takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Jumladan, og‘zaki suhbat asosida o‘tkaziladigan imtihonda komissiya a'zolarining baholash yondashuvlari o‘rtasida farqlar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Har bir savolga qo‘yiladigan ballning aniq mezonlari, javobning nazariy jihatdan to‘g‘riligi, qonunchilikka havola qilish darajasi, huquqiy vaziyatni tahlil etish qobiliyati va amaliy yechim taklif qilish ko‘nikmalarini baholashning yagona standartlarini yanada takomillashtirish zarur. Bundan tashqari, beshta savol va 30 daqiqalik tayyorgarlik vaqti talabgorning butun kasbiy kompetensiyasini aniqlash uchun qay darajada yetarli ekanligi ham ilmiy munozaraga sabab bo‘lishi mumkin.

Birinchi muammo sifatida baholash mezonlarining yetarlicha standartlashtirilmaganligi hisoblanadi.

[8] 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, 2025-yil 7-iyulda 3637-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi” Nizom

[9] Лень В.В., Лень В.В. Проблема реформирования украинской адвокатуры // Известия высших учебных заведений. Правоведение. 2005. № 1. С. 182

3637-son Nizomning 38-bandiga muvofiq, malaka imtihonida har bir savolga 0 balldan 10 ballgacha baho qo‘yiladi. Bunda malaka komissiyasi majlisida ishtirok etgan a’zolarning har biri talabgorning javobini elektron tizim orqali mustaqil baholaydi. Mazkur tartib baholash jarayonini elektronlashtirish va komissiya a’zolarining individual baholarini qayd etish imkonini bersa-da, javobning tarkibiy qismlarini baholash bo‘yicha yagona batafsil mezonlarni belgilash masalasi yanada takomillashtirilishi lozim. Xususan, talabgorning huquqiy muammoni aniqlashi, tegishli qonunchilik normasini topishi, uni muayyan vaziyatga tatbiq etishi va asoslantirilgan xulosa chiqarishi uchun ajratiladigan ballar nisbatini aniq belgilash muhimdir. Masalan, birinchi talabgor qonun normasini to‘g‘ri keltirishi, biroq uni amaliy vaziyatga noto‘g‘ri tatbiq qilishi mumkin. Ikkinchi talabgor esa modda raqamini aniq ayta olmasa-da, normaning mazmunini to‘g‘ri tushuntirib, huquqiy vaziyatga asosli yechim taklif qilishi mumkin. Bunday holatlarda javoblarni faqat umumiy taassurot asosida baholash subyektivlikka sabab bo‘lishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Shu sababli talabgorning javobini tashkil etuvchi har bir muhim tarkibiy qism uchun oldindan belgilangan ball mezonlarini ishlab chiqish zarur.

Taklif sifatida har bir savol va amaliy topshiriq uchun yagona standart baholash varaqasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Baholash mezonlarini quyidagicha belgilash taklif qilinadi:

Baholash mezonlari	**Ball**
Huquqiy muammoni to‘g‘ri aniqlash	2
Tegishli qonunchilik normalarini aniqlash	2
Huquqiy normalarni vaziyatga to‘g‘ri tatbiq etish	3
Mustaqil va asoslantirilgan huquqiy xulosa chiqarish	2
Javobning izchilligi va kasbiy nutq	1
Jami	**10**

Mazkur mezonlar nazariy savollar va amaliy kazuslarning xususiyatidan kelib chiqib alohida ishlab chiqilishi lozim. Masalan, amaliy topshiriqlarda protsessual hujjatning qonuniyligi, mazmuni va protsessual talablarga muvofiqligini baholashga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Natijada komissiya a’zolari talabgorning javobini bir

xil mezonlar asosida baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa baholashda subyektivlikni kamaytirish, qarorlarning asoslantirilganligini oshirish va talabgorlar uchun teng sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muammo: malaka imtihonining ixtisosliklar bo‘yicha yetarlicha differensiallashtirilmaganligi

Amaldagi tartibda malaka imtihoni ikki xil yo’nalish bo’yicha, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish hamda ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish ixtisosliklari bo‘yicha tashkil etiladi. Bu, albatta, advokatlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ajratish va talabgorning tanlagan ixtisosligi bo‘yicha bilimlarini aniqlashga xizmat qiladi. Biroq zamonaviy advokatlik amaliyoti mazkur ikki yo‘nalish doirasidan ham kengroq sohalarni qamrab oladi. Jumladan, korporativ huquq, soliq huquqi, intellektual mulk, investitsiya nizolari, xalqaro tijorat huquqi, arbitraj, mehnat va oilaviy huquq kabi yo‘nalishlar advokatlik faoliyatida alohida kasbiy bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Albatta, ushbu sohalarning har birini mustaqil ixtisoslik sifatida belgilash maqsadga muvofiq emas. Biroq mavjud ixtisosliklar doirasida talabgorning kelgusida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan sohasi bo‘yicha qo‘shimcha amaliy bilimlarini baholash imkoniyatini yaratish mumkin.

Taklif: umumiy malaka imtihonining amaldagi ikki ixtisoslik bo‘yicha tuzilishini saqlab qolgan holda, talabgorga o‘zi tanlagan qo‘shimcha faoliyat sohasi doirasida amaliy kazus yechish imkoniyatini berish. Masalan, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish ixtisosligini tanlagan talabgor korporativ nizo, soliq nizosi yoki investitsiya shartnomasidan kelib chiqadigan huquqiy vaziyat bo‘yicha topshiriq bajarishi mumkin. Bunday yondashuv advokatlik faoliyatidagi ixtisoslashuvni rivojlantirish, talabgorning muayyan huquq sohasi bo‘yicha amaliy tayyorgarligini aniqlash va kelgusida ko‘rsatiladigan yuridik xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi: advokatlik malaka imtihonini tashkil etishning qiyosiy-huquqiy modellari

Qozog‘iston va O‘zbekiston malaka imtihoni tizimining qiyosiy-huquqiy tahlili

Yuqorida aniqlangan muammolar va taklif etilayotgan yechimlar advokatlik malaka imtihonini takomillashtirishda faqat milliy qonunchilik doirasida cheklanib qolmasdan,

xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishda ularning huquqiy tizimi, advokatura institutining tashkiliy modeli va advokatlik kasbiga qo‘yiladigan malaka talablarini hisobga olish lozim. Chunki muayyan davlatda samarali natija berayotgan mexanizm boshqa davlatning huquqiy tizimida aynan shu shaklda kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Shu sababli xorijiy tajribani o‘rganishdan asosiy maqsad mavjud modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ularning O‘zbekiston advokatura tizimiga mos keladigan va aniqlangan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladigan jihatlarini aniqlashdan iborat. Mazkur tadqiqot doirasida Qozog‘iston, Singapur va Germaniya davlatlarining advokatlik kasbiga kirish hamda malaka talablarini belgilash tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiq. Ushbu davlatlar tajribasining tanlanishi ularning advokatlik kasbiga kirish jarayonida turli tashkiliy va huquqiy mexanizmlardan foydalanishi bilan izohlanadi. Jumladan, Qozog‘iston tajribasi advokatlik faoliyatiga nomzodlarni tayyorlash va ularning kasbiy yaroqliligini aniqlash mexanizmlarini o‘rganish uchun, Singapur tajribasi nazariy bilim, professional imtihon va nazorat ostidagi amaliy tayyorgarlikni birlashtirgan tizimni tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega.Ushbu davlatlar tajribasini qiyosiy o‘rganish natijasida O‘zbekiston Respublikasida malaka imtihonini takomillashtirishning huquqiy va tashkiliy jihatdan asoslangan takliflarini ishlab chiqish mumkin.

Qozog‘iston Respublikasida advokatlik faoliyatini tashkil etishning asosiy huquqiy manbasi 2018-yil 5-iyuldagi 176-VI-sonli «Advokatlik faoliyati va yuridik yordam to‘g‘risida»gi Qonun hisoblanadi. Mazkur qonunning 32-moddasida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lish uchun qo‘yiladigan talablar, 38-moddasida stajirovka, 39-moddasida esa malaka attestatsiyasidan o‘tish tartibi belgilangan[10].

Qozog‘istonda advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga da’vogar shaxslarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibi Adliya vaziri vazifasini bajaruvchisining 2020-yil 28-maydagi 61-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan davlat xizmatini ko‘rsatish qoidalari asosida tartibga solinadi. Mazkur hujjatga 2026-yil 30-apreldagi 406-son buyruq bilan

[10] Закон Республики Казахстан от 5 июля 2018 года № 176-VI «Об адвокатской деятельности и юридической помощи» // Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан «Әділет». Ст. 32, 38, 39

o‘zgartirish kiritilgan bo‘lib, tegishli yangi tahrir 2026-yil 12-iyuldan kuchga kirgan[11]. Attestatsiya Qozog‘iston Respublikasi hududiy adliya departamentlari tomonidan tashkil etiladi. Imtihonlar maxsus texnik jihozlangan test markazlarida test operatori ishtirokida o‘tkaziladi. Nomzod attestatsiyadan o‘tish uchun elektron hukumat portali yoki elektron litsenziyalash tizimi orqali ariza yuboradi. Bu jarayonda talabgorning shaxsiga, ma’lumotiga va qonunchilikda belgilangan boshqa talablarga muvofiqligiga oid axborotlar tekshiriladi. Elektron shaklda murojaat qilishning joriy etilishi ortiqcha hujjat almashinuvini kamaytirish, arizalarni ko‘rib chiqish jarayonini tezlashtirish va inson omilining ta’sirini qisqartirishga xizmat qiladi.

Qozog‘iston tajribasida attestatsiyaning eng muhim jihati uning ikki mustaqil bosqichdan iborat ekanligidir.

Birinchi bosqich - nazariy bilimlarni kompyuter orqali tekshirish

Attestatsiyaning birinchi bosqichida nomzodning Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligiga oid bilimlari kompyuter orqali tekshiriladi. Amaldagi tartibga muvofiq, nomzodga jami 100 ta test savoli beriladi va ularni bajarish uchun 90 daqiqa vaqt ajratiladi. Birinchi bosqichdan muvaffaqiyatli o‘tish uchun nomzod kamida 70 foiz, ya’ni 70 ta savolga to‘g‘ri javob berishi lozim[12]. Test savollari advokatlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga daxldor qonunchilik hujjatlari asosida shakllantiriladi. Jumladan, fuqarolik, fuqarolik protsessual, jinoyat, jinoyat-protsessual, ma’muriy huquqbuzarliklar, ma’muriy protsessual qonunchilik hamda advokatlik faoliyatiga oid qonun hujjatlari qamrab olinadi. Savollar kamida uchta javob variantidan iborat bo‘lib, ulardan faqat bittasi to‘g‘ri hisoblanadi. Test materiallarining maxfiyligi ta’minlanadi va imtihon jarayonida telefon, ma’lumotnoma yoki boshqa yordamchi vositalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi[13]. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi talabgorning tegishli huquq sohalari bo‘yicha nazariy tayyorgarligini keng qamrovda aniqlashdan

[11] Приказ и.о. Министра юстиции Республики Казахстан от 28 мая 2020 года № 61 «Об утверждении Правил оказания государственных услуг по вопросам адвокатской деятельности». Зарегистрирован в Министерстве юстиции Республики Казахстан 29 мая 2020 года № 20774 // Информационно-правовая система «Әділет»

[12] Приказ Министра юстиции Республики Казахстан от 30 апреля 2026 года № 406 «О внесении изменений в приказ исполняющего обязанности Министра юстиции Республики Казахстан от 28 мая 2020 года № 61». Введен в действие с 12 июля 2026 года

[13] Правила оказания государственной услуги «Проведение аттестации лиц, претендующих на занятие адвокатской деятельностью». Положения о проведении комплексного компьютерного тестирования: 100 вопросов, 90 минут, проходной порог - 70 процентов.

iborat. Bunda 100 ta savolning mavjudligi beshta savolga asoslangan og‘zaki suhbatga qaraganda bilimlarni kengroq tekshirish imkonini beradi. Ayniqsa, turli huquq sohalariga oid savollarning birgalikda berilishi talabgorning faqat bitta yo‘nalishdagi bilimlari bilan cheklanib qolmasligini ta’minlaydi.

Ikkinchi bosqich - amaliy kasbiy ko‘nikmalarni baholash

Qozog‘iston tajribasining eng muhim jihati malaka attestatsiyasining ikkinchi bosqichida namoyon bo‘ladi. Ushbu bosqich nomzodning amaliy vaziyatlarda huquqiy yechim topish, qonunchilik normalarini to‘g‘ri qo‘llash va kasbiy fikrlash qobiliyatini tekshirishga qaratilgan. Nomzodga uchta amaliy vaziyat taqdim etiladi. Ushbu vaziyatlar bo‘yicha jami 12 ta savol beriladi va ularni bajarish uchun 30 daqiqa vaqt ajratiladi. Ikkinchi bosqichdan o‘tish uchun 12 ta savoldan kamida 8 tasiga to‘g‘ri javob berish talab etiladi, ya’ni o‘tish mezoni 65 foizni tashkil qiladi. Amaliy topshiriqlarning mazmuni nomzodning huquqiy vaziyatni tushunish, tegishli moddiy yoki protsessual normani aniqlash, huquqiy mexanizmni tanlash va muammoga asosli yechim topish qobiliyatini baholashga qaratilgan. Bu mexanizmning o‘ziga xosligi shundaki, nazariy bilimlarni tekshirish va amaliy ko‘nikmalarni baholash bir-biridan mustaqil amalga oshiriladi. Masalan, nomzod birinchi bosqichda yuqori natija ko‘rsatgan bo‘lsa-da, amaliy vaziyatlarni yechishda belgilangan minimal talabni bajara olmasa, attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan hisoblanmaydi. Demak, Qozog‘iston tizimida advokatlik faoliyatiga kirish uchun faqat qonunchilikni bilish emas, balki uni amalda qo‘llay olish ham majburiy talab sifatida qaraladi. Yana bir muhim jihat shuki, amaliy vaziyatlar mazmunini shakllantirishda advokatlik hamjamiyatining ishtiroki nazarda tutilgan. Bu esa imtihon topshiriqlarining real advokatlik faoliyati ehtiyojlariga mos bo‘lishiga xizmat qiladi.

Singapur tajribasi va O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati uchun malaka imtihonini qabul qilish tartibining qiyosiy-huquqiy tahlili

Singapur tajribasining O‘zbekiston advokaturasi uchun ahamiyati shundaki, ushbu davlatda advokatlik kasbiga kirish jarayoni talabgorning qonunchilikni bilishini tekshirish bilangina cheklanmaydi. Unda nazariy tayyorgarlik, kasbiy imtihon, amaliy faoliyat va tajribali yurist nazorati bir-biri bilan bog‘langan. O‘zbekiston qonunchiligida

ham malaka imtihoni va stajirovka mavjud, biroq ularning natijalarini yagona kasbiy kompetensiya mezonlari asosida baholash mexanizmi Singapur tizimidagidek batafsil shakllantirilmagan. Singapurda mazkur munosabatlar 1966-yildagi Legal Profession Act hamda 2024-yildagi Legal Profession (Admission) Rules bilan tartibga solinadi. O‘zbekistonda esa 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyruq bilan tasdiqlangan va 7-iyulda 3637-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Malaka komissiyalari to‘g‘risidagi Nizom asosiy protsessual tartibni belgilaydi. Ushbu Nizom 2025-yil 10-oktabrdan kuchga kirgan[14].

Singapurda talabgor avval qonunchilikda belgilangan talablarga javob beruvchi Qualified Person maqomini olishi, so‘ng Part B Course va Part B Examinations bosqichlaridan o‘tishi mumkin. Muhim jihati shundaki, Part B kursini tamomlash va imtihondan muvaffaqiyatli o‘tish dastlab Lawyer (Non-Practitioner) maqomiga qabul qilinish uchun talab etiladi. To‘liq Advocate and Solicitor maqomini olish uchun esa qo‘shimcha ravishda amaliy tayyorgarlik talablari bajarilishi kerak[15].

O‘zbekistonda esa talabgor advokatlik tuzilmasida kamida uch oy stajirovkadan o‘tganidan keyin malaka imtihoniga kiradi. Demak, O‘zbekiston modelida stajirovka imtihondan oldingi majburiy shart bo‘lsa, Singapurda kasbiy tayyorgarlik va imtihon o‘zaro bog‘langan, 12 oylik nazorat ostidagi amaliyot esa to‘liq advokatlik maqomiga qabul qilinish jarayonining keyingi bosqichini tashkil etadi. Bu farq O‘zbekiston uchun muhim, chunki uch oylik stajirovkadan o‘tganlikning o‘zi talabgor advokatlik faoliyatini mustaqil amalga oshirishga yetarli darajada tayyor ekanligini har doim ham anglatmaydi. Stajirovka davomida talabgor qanday amaliy vazifalarni bajargani, protsessual hujjatlar tayyorlashni o‘zlashtirgani va mijoz bilan ishlash ko‘nikmasini egallagani ham aniqlanishi kerak. Singapurda 12 oylik amaliy tayyorgarlikning belgilanishi shunchaki stajirovka muddatini uzaytirish emas. Uning davomida talabgor turli amaliyot yo‘nalishlarida ishlaydi, belgilangan kasbiy vazifalarni bajaradi va nazorat qiluvchi yurist tomonidan baholanadi. Shu sababli O‘zbekiston uchun ko‘chirib olinishi lozim bo‘lgan jihat 12 oylik muddatning o‘zi emas, balki amaliy tayyorgarlikni aniq

[14] Singapore Legal Profession Act 1966; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug‘i, 3637-son Nizom

[15] Legal Profession Act 1966, 13-modda; Legal Profession (Admission) Rules 2024

vazifalar va natijalar asosida tashkil etish mexanizmidir[16].

Singapurdagi Part B Course oltita majburiy moduldan tashkil topgan. Ular kasbiy etika va javobgarlik, korporativ va tijorat amaliyoti, nizolarni hal etish, xususiy mijozlar bilan ishlash, zamonaviy huquqiy bilimlar hamda professional ko‘nikmalarni qamrab oladi. Part B imtihonlari esa yozma ishlar va test topshiriqlaridan iborat. Masalan, nizolarni hal etish modulida fuqarolik sud ishlarini yuritish va yozma himoya, shuningdek arbitraj va mediatsiya masalalari tekshiriladi. Imtihonlar ochiq kitob (open-book) shaklida o‘tkaziladi[17]. O‘zbekistonda 3637-son Nizomning 32-34-bandlariga muvofiq malaka imtihoni og‘zaki suhbat shaklida o‘tkaziladi. Talabgorga beshta savol tasodifiy tanlab beriladi va javoblarni tayyorlash uchun 30 daqiqa vaqt ajratiladi. Savollar fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish yoki ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish ixtisosliklari bo‘yicha shakllantiriladi. Bu ikki tizim o‘rtasidagi asosiy farq baholash obyektidadir.

O‘zbekistonda talabgorning muayyan huquq sohasi bo‘yicha bilimlari og‘zaki javob orqali aniqlanadi. Singapurda esa bilimlarni amaliyotda qo‘llash, yozma huquqiy pozitsiya shakllantirish va protsessual muammolarni hal etish qobiliyati ham tekshiriladi. Mazkur farqning O‘zbekiston uchun ahamiyati shundaki, advokat faoliyatida qonun normalarini bilishning o‘zi yetarli emas. Advokat da’vo arizasi, shikoyat, iltimosnoma va boshqa protsessual hujjatlarni tayyorlashi, dalillarni huquqiy jihatdan baholashi, mijoz manfaatlarini himoya qilishi kerak. Faqat og‘zaki savollarga javob berish orqali ushbu ko‘nikmalarning barchasini aniqlash imkoniyati cheklangan. Shu sababli Singapur tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda amaldagi beshta og‘zaki savolni saqlab qolgan holda, ularga qo‘shimcha ravishda bitta amaliy kazus va bitta protsessual hujjat tayyorlash topshirig‘ini kiritish maqsadga muvofiq. Bunda talabgorning huquqiy asoslarni topishi, ularni vaziyatga to‘g‘ri tatbiq etishi va asoslantirilgan xulosa chiqarishi alohida baholanishi kerak.

Singapur tajribasida e’tiborga molik jihatlardan yana biri - talabgorning amaliy tayyorgarligi belgilangan muddat davomida nazorat qilinishidir. Legal Profession Act

[16] Singapore Institute of Legal Education. Practice Training Period Guidelines 2024. Rasmiy hujjat (PDF)
[17] Singapore Institute of Legal Education. Part B Course and Examinations, 2026-yilgi amaldagi modul va imtihon talablari. Singapore Institute of Legal Education.

1966 qonunining 13-moddasi va Legal Profession (Admission) Rules 2024 qoidalariga muvofiq, Advocate and Solicitor maqomini olish uchun 12 oylik Practice Training Period talab qilinadi. Ushbu muddat uzluksiz 16 oy ichida yakunlanishi lozim[18]. Amaliy tayyorgarlik davomida talabgor Advocate Seat va Solicitor Seat, shuningdek Core Seat va Secondary Seat talablarini bajaradi. Bundan tashqari, General Practice Training Checklist orqali turli amaliy vazifalar va kasbiy kompetensiyalarni egallaganligi tekshiriladi. Nazorat qiluvchi solicitor dastlabki to‘qqiz oy davomida har uch oyda bir marta talabgor bilan baholash suhbatini o‘tkazib, tegishli Review Formni to‘ldiradi[19]. O‘zbekiston qonunchiligida esa 3637-son Nizomning 27-bandida uch oylik stajirovkadan o‘tish talabi belgilangan bo‘lsa-da, ushbu bandning o‘zida stajirovka davomida bajarilishi shart bo‘lgan kasbiy vazifalar va ularni davriy baholashning batafsil mexanizmi nazarda tutilmagan. Natijada stajirovkaning amaliy mazmuni va talabgorning qanday kasbiy ko‘nikmalarni egallaganini aniqlash masalasi dolzarb bo‘lib qoladi.

Qiyosiy tahlildan kelib chiqadigan taklif: O‘zbekiston Advokatlar palatasi huzurida stajirovka o‘tayotgan talabgorlar uchun yagona elektron kasbiy portfel joriy etish lozim. Unda talabgor tomonidan tayyorlangan da’vo arizalari, shikoyatlar, iltimosnomalar, huquqiy xulosalar va boshqa amaliy topshiriqlar qayd etilishi kerak. Stajirovka rahbari ushbu ishlarni baholab, talabgorning amaliy tayyorgarligi yuzasidan yakuniy xulosa beradi. Buning ahamiyati shundaki, malaka komissiyasi talabgorning faqat imtihon kuni ko‘rsatgan bilimini emas, balki stajirovka davomida shakllangan kasbiy ko‘nikmalarini ham hisobga olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Singapurda kasbiy etika alohida majburiy modul sifatida o‘qitiladi. Part B kursida Ethics and Professional Responsibility yo‘nalishi bo‘yicha uchta amaliy mashg‘ulotda qatnashish majburiy hisoblanadi. Bundan tashqari, amaliy tayyorgarlik davrida professional etika bo‘yicha elektron kursni tugatish ham talab qilinadi[20]. O‘zbekistonda esa advokatning kasbiy faoliyati va odob-axloq qoidalari malaka imtihoni doirasida o‘rganiladigan huquqiy bilimlar tarkibiga kiradi. Biroq kasbiy etikaga oid bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini alohida

[18] Legal Profession Act 1966, 13-modda; Legal Profession (Admission) Rules 2024, 30–32-qoidalar.
[19] Singapore Institute of Legal Education. Practice Training Period, Seat Requirements va Review Session Requirements. Singapore Institute of Legal Education.
[20] Singapore Institute of Legal Education. Part B Course, Ethics and Professional Responsibility moduli. Singapore Institute of Legal Education

baholash mexanizmini rivojlantirish zarur. Masalan, talabgorga advokatning mijoz manfaatlari bilan boshqa shaxs manfaatlari to‘qnashgan vaziyatda qanday harakat qilishi, advokatlik sirini saqlash majburiyati yoki mijozga nisbatan noto‘g‘ri huquqiy maslahat berish oqibatlari haqida kazus berilishi mumkin.

Qiyosiy tahlildan kelib chiqadigan taklif: malaka imtihoniga “Advokatlik etikasi va kasbiy mas’uliyat” bo‘yicha alohida amaliy topshiriq kiritish maqsadga muvofiq. Bu orqali talabgorning advokatlik faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan axloqiy va huquqiy muammolarga munosabati aniqlanadi. Bunday yondashuv advokatlik kasbiga faqat qonunchilikni biladigan shaxslarni emas, balki mijoz manfaatlarini vijdonan himoya qilishga tayyor mutaxassislarni qabul qilishga xizmat qiladi.

Imtihonning xolisligi va baholash mezonlari O‘zbekistonning amaldagi tartibida malaka imtihoni audio va videoyozuvga olinishi hamda real vaqt rejimida translyatsiya qilinishi belgilangan. Shuningdek, talabgorga beriladigan savollar elektron tizim orqali tasodifiy tanlanadi. Bu talabgorlar uchun teng sharoit yaratish va imtihon jarayonining shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. Singapurda esa imtihonlar oldindan belgilangan modullar va yozma baholash shakllari asosida tashkil etiladi. Part B imtihonlari ochiq kitob shaklida o‘tkaziladi, ya’ni talabgorning faqat ma’lumotni yodlab qolishi emas, balki undan huquqiy muammoni hal qilishda foydalanish qobiliyati ham tekshiriladi[21]. Bu jihat O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki amaliy advokatlik faoliyatida huquqiy axborotni yoddan bilishdan ko‘ra, tegishli normani mustaqil topish, uning mazmunini sharhlash va muayyan vaziyatga tatbiq etish ko‘proq ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlildan kelib chiqadigan taklif: O‘zbekistonda amaliy topshiriqlarni bajarishda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishga ruxsat berilgan alohida ochiq kitob shaklidagi baholash bosqichini joriy etish mumkin. Bunda talabgorning normani topish tezligi emas, balki uni to‘g‘ri qo‘llashi, huquqiy xulosa chiqarishi va o‘z pozitsiyasini asoslab berishi baholanishi kerak. Bundan tashqari, amaliy topshiriqlar uchun yagona baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur. Masalan, huquqiy asoslarning

[21] Singapore Institute of Legal Education. Part B Examinations, Open-book examination format. Singapore Institute of Legal Education

to‘g‘ri tanlanishi, protsessual talablarning bajarilishi, dalillarning tahlili va huquqiy pozitsiyaning asoslantirilishi alohida mezonlar sifatida belgilanishi mumkin.

Fransiya tajribasi va O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati uchun malaka imtihonini qabul qilish tartibining qiyosiy-huquqiy tahlili

Fransiya tajribasining O‘zbekiston advokaturasi uchun ahamiyati advokatlik kasbiga qabul qilish jarayonida nazariy bilim, maxsus kasbiy tayyorgarlik va amaliy ko‘nikmalarni alohida bosqichlarda baholash tizimida namoyon bo‘ladi. Fransiyada advokat bo‘lish uchun faqat yuridik diplomga ega bo‘lish yetarli emas. Talabgor maxsus kirish imtihonidan o‘tishi, advokatlar kasbiy tayyorgarlik maktabida ta’lim olishi va yakuniy malaka imtihonini topshirishi lozim. Fransiyada mazkur munosabatlar 1971-yil 31-dekabrdagi 71-1130-son «Ayrim sud va yuridik kasblarni isloh qilish to‘g‘risida»gi Qonun, 1991-yil 27-noyabrdagi 91-1197-son Dekret hamda Milliy advokatlar kengashining kasbiy tayyorgarlik dasturlariga oid normativ qarorlari bilan tartibga solinadi[22]. Fransiyada advokatlik kasbiga kirishning birinchi sharti tegishli yuridik ma’lumotga ega bo‘lishdir. 2025-yil 1-yanvardan kuchga kirgan o‘zgartirishlarga muvofiq, advokatlik faoliyati uchun, umumiy qoida tariqasida, huquq yo‘nalishi bo‘yicha magistr darajasi - Master 2 talab etiladi. Biroq CRFPA kirish imtihoniga qo‘yilish uchun qonunda belgilangan birinchi 60 kredit, ya’ni Master 1 bosqichini tamomlaganlik talab qilinadi[23].

Keyingi bosqich - Examen d’accès au Centre régional de formation professionnelle des avocats (CRFPA), ya’ni advokatlar kasbiy tayyorgarlik markaziga kirish imtihonidir. Ushbu imtihon universitetlar huzuridagi sud-huquqiy tadqiqot institutlari tomonidan tashkil etiladi va yiliga bir marta o‘tkaziladi. Talabgor imtihonda uch martadan ortiq qatnasha olmaydi[24]. CRFPA imtihonining muhim jihati uning bir necha huquqiy yo‘nalishdagi bilimlarni qamrab olishidir. Imtihon yozma va og‘zaki sinovlardan tashkil topadi. Yozma bosqichda huquqiy hujjat yoki tahliliy xulosa tayyorlash, majburiyat huquqi, tanlangan ixtisoslik va protsessual huquq bo‘yicha bilimlar tekshiriladi.

[22] Loi n° 71-1130 du 31 décembre 1971 portant réforme de certaines professions judiciaires et juridiques (Ayrim sud va yuridik kasblarni isloh qilish to‘g‘risidagi 1971-yil 31-dekabrdagi 71-1130-son Qonun).
[23] Décret n° 91-1197 du 27 novembre 1991 organisant la profession d'avocat (Advokatlik kasbini tashkil etish to‘g‘risidagi 1991-yil 27-noyabrdagi 91-1197-son Dekret)
[24] Arrêté du 17 octobre 2016 fixant le programme et les modalités de l’examen d’accès au CRFPA

Ixtisoslik sifatida fuqarolik, biznes, mehnat, jinoyat, ma'muriy, xalqaro va Yevropa huquqi hamda soliq huquqi yo'nalishlaridan biri tanlanishi mumkin. Og'zaki bosqichda esa ingliz tili va insonning asosiy huquq hamda erkinliklarini himoya qilishga oid bilimlar tekshiriladi. Mazkur tartibning muhim jihati shundaki, Fransiyada talabgorning faqat qonunchilikni bilishi emas, balki huquqiy muammoni tahlil qilish, tegishli huquqiy normalarni tanlash va o'z fikrini asoslab berish qobiliyati ham baholanadi. 18 oylik kasbiy tayyorgarlik va CAPA malaka imtihoni Fransiya modelining O'zbekiston uchun eng muhim jihati CRFPA imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgan talabgorning 18 oylik maxsus kasbiy tayyorgarlikdan o'tishidir.

1971-yil 31-dekabrdagi Qonunning 12-moddasiga muvofiq, advokatlik faoliyati uchun talab qilinadigan kasbiy tayyorgarlik kamida 18 oy davom etadigan nazariy va amaliy ta'limni o'z ichiga oladi. Ushbu tayyorgarlik yakunida Certificat d'aptitude à la profession d'avocat (CAPA) - advokatlik kasbiga layoqatlilik sertifikati beriladi[25]. Fransiya Milliy advokatlar kengashi ma'lumotlariga ko'ra, 18 oylik tayyorgarlik uchta olti oylik bosqichdan iborat:

Birinchi olti oyda talabgor advokatlik faoliyatining asosiy kasbiy ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Bunda advokatlik etikasi, mijoz bilan ishlash, huquqiy maslahat berish, protsessual hujjatlarni tayyorlash va sudda nutq so'zlash kabi masalalar o'rgatiladi.

Ikkinchi olti oyda individual kasbiy loyiha - Projet pédagogique individuel (PPI) amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda talabgor advokatlik firmasidan tashqari sud, davlat boshqaruvi organi, korxona yoki boshqa tegishli tashkilotda amaliy tajriba orttirishi mumkin.

Uchinchi olti oyda esa talabgor bevosita advokatlik firmasida stajirovka o'taydi va advokatlik faoliyatining amaliy jihatlarini o'rganadi. Bu mexanizmning ahamiyati shundaki, talabgor advokatlik faoliyatini faqat bitta advokatlik tuzilmasi doirasida emas, balki turli huquqiy institutlar faoliyatini kuzatish orqali o'rganadi. Natijada uning huquqiy nizolarni tahlil qilish, mijoz manfaatlarini himoya qilish va protsessual vaziyatlarni baholash ko'nikmalari rivojlanadi. 18 oylik tayyorgarlikdan so'ng talabgor CAPA yakuniy imtihonini topshiradi. Imtihon yozma va og'zaki topshiriqlarni qamrab oladi. Talabgorning kasbiy bilimlari, huquqiy hujjatlar tayyorlash qobiliyati, advokatlik

[25] Conseil National des Barreaux, Décision à caractère normatif n° 2020-001

etikasi va kasbiy faoliyatga tayyorligi baholanadi. Imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxs advokatlik faoliyatini boshlash uchun tegishli advokatlar kollegiyasi ro‘yxatiga kiritilish haqida murojaat qilishi mumkin[26].

Katherine Lisfrancning 1994-yilda Revue internationale de droit comparé jurnalida chop etilgan «La formation des avocats français et le droit comparé» nomli maqolasida advokatlar kasbiy tayyorgarligining asosiy vazifasi kelajakdagi advokatga faqat nazariy bilim berish emas, balki uni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlash ekanligi ta’kidlanadi. Muallif Parij advokatlar tayyorlash markazi tajribasini tahlil qilib, kasbiy ta’limning mazmuni advokatlik faoliyatining real ehtiyojlariga mos bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi[27]. Ushbu qarash O‘zbekiston uchun muhim. Chunki malaka imtihonida talabgorning qonun moddalarini bilishini tekshirish bilan cheklanmasdan, huquqiy maslahat berish, mijoz bilan muloqot qilish, protsessual hujjat tayyorlash va sudda himoya pozitsiyasini shakllantirish qobiliyatini ham baholash zarur.

Fransuz huquqshunosi va professor Christophe Jaminning «Cliniques du droit: innovation versus professionnalisation» nomli 2014-yilgi maqolasida huquqiy klinikalar masalasi tahlil qilingan. Muallif huquqiy klinikalarni yuridik ta’limning innovatsion usuli sifatida ko‘radi, biroq ularning mavjudligi o‘z-o‘zidan to‘liq kasbiy tayyorgarlikni ta’minlamasligini ham nazarda tutadi[28]. Bu fikrning ahamiyati shundaki, bo‘lajak advokat amaliy mashg‘ulotlarda faqat kuzatuvchi bo‘lib qolmasligi, balki rahbar nazorati ostida huquqiy muammolarni tahlil qilish, hujjatlar loyihasini tayyorlash va mijozlarning huquqiy muammolariga yechim ishlab chiqishda ishtirok etishi lozim.

Fransiya advokatlar milliy kengashining sobiq professional tayyorgarlik komissiyasi raisi Jean de Cesseau tomonidan tayyorlangan «Rapport sur la formation des futurs avocats et des avocats en activité» materialida ham muhim muammolar ko‘tarilgan. Muallifning fikricha, yuridik universitet ta’limida ayrim hollarda nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga ortiqcha e’tibor berilib, protsessual huquq, yuridik hujjatlar

[26] Conseil national des barreaux. Présentation du parcours de formation https://cnb.avocat.fr/medias/cnb-guidepratique-devenir-avocat-choix-ecole-2025
[27] Lisfranc, Katherine. *La formation des avocats français et le droit comparé*. Revue internationale de droit comparé, Vol. 46, No. 3, juillet-septembre 1994, pp. 799-802.
[28] Jamin, Christophe. *Cliniques du droit : innovation versus professionnalisation ?* Recueil Dalloz Sirey de doctrine de jurisprudence et de législation, 2014, No. 11, pp. 675-681.

tuzish va huquqiy maslahat tayyorlash kabi amaliy ko‘nikmalar yetarli darajada shakllantirilmaydi[29]. Bu tanqid O‘zbekiston uchun ham dolzarb. Chunki advokatlik faoliyatida protsessual hujjatni to‘g‘ri rasmiylashtirish, dalillarni huquqiy jihatdan baholash va mijoz manfaatlarini himoya qilish nazariy bilimlardan tashqari maxsus amaliy ko‘nikmalarni talab qiladi.

Sandrine Clavel va Kami Haeri tadqiqotining alohida ahamiyati. Fransiya tajribasida eng muhim ilmiy-amaliy manbalardan biri Sandrine Clavel va Kami Haeri raisligida 2019–2020-yillarda tayyorlangan «Rapport sur la formation des avocats» hisobotidir. Ushbu hisobot Fransiya Adliya vazirligi topshirig‘i bilan advokatlik kasbiga kirish imtihoni, boshlang‘ich kasbiy tayyorgarlik, advokatlar tayyorlash maktablari va yakuniy CAPA imtihonini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan[30]. Hisobotda Fransiya tizimining o‘zida mavjud bo‘lgan bir nechta muammo ko‘rsatilgan.

Birinchidan, CRFPA kirish imtihonida hududlar bo‘yicha baholashning bir xilligini ta’minlash masalasi mavjud bo‘lgan. Shu sababli mualliflar yozma ishlarni yagona milliy platforma orqali taqsimlash va boshqa hududdagi imtihon oluvchilar tomonidan tekshirish tizimini taklif qilganlar. Bunda talabgorning qaysi hududda imtihon topshirgani baholovchiga ma’lum bo‘lmasligi ko‘zda tutilgan.

Ikkinchidan, hisobotda imtihon mazmunini faqat bilimlarni tekshirishga emas, balki huquqiy fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni baholashga yo‘naltirish taklif etilgan. Jumladan, barcha hujjatlardan foydalanishga ruxsat berilgan holda, talabgorning huquqiy tahlil qilish qobiliyatini tekshirish imkoniyati ko‘rib chiqilgan.

Uchinchidan, mualliflar advokatlik etikasi bo‘yicha alohida imtihon elementini joriy etishni taklif qilganlar. Ularning fikricha, advokatlik faoliyatiga kirayotgan shaxs kasbiy etika, manfaatlar to‘qnashuvi va professional majburiyatlarni yetarli darajada bilishi kerak.

To‘rtinchidan, hisobotda amaldagi 18 oylik kasbiy tayyorgarlikning ayrim qismlari takroriy va haddan tashqari murakkab ekanligi qayd etilgan. Mualliflar universitet

[29] De Cesseau, Jean. *Rapport sur la formation des futurs avocats et des avocats en activité*. Commission Formation, CNA (Conférence Nationale des Avocats).
[30] Clavel, Sandrine; Haeri, Kami (sous la présidence de). *Rapport sur la formation des avocats*. Groupe de travail sur la formation des avocats, Direction des affaires civiles et du Sceau, Ministère de la Justice, novembre 2019-juillet 2020. Rapport remis au garde des Sceaux le 23 octobre 2020.

ta’limida allaqachon o‘zlashtirilgan nazariy fanlarni yana takrorlash o‘rniga, advokatlik etikasiga, sudda nutq so‘zlashga va protsessual hujjatlar tayyorlashga ko‘proq e’tibor qaratishni taklif qilganlar. Eng e’tiborli jihati shundaki, Clavel va Haeri 18 oylik tayyorgarlikni 12 oyga qisqartirish, bunda uch oylik maxsus ta’lim va to‘qqiz oylik amaliyot modelini taklif etgan. Shuningdek, CAPA yakuniy imtihonini soddalashtirish, uzluksiz baholashni kuchaytirish va 40 daqiqalik yakuniy og‘zaki imtihonda talabgorning suddagi nutqi, amaliy ishi va kasbiy etikasi bo‘yicha bilimlarini kompleks baholashni tavsiya etganlar.

Mazkur hisobotdan O‘zbekiston uchun olinadigan muhim xulosa: kasbiy imtihonning samaradorligi savollar soni yoki tayyorgarlik muddatining uzunligi bilan emas, balki talabgorning kasbiy faoliyat uchun zarur kompetensiyalarini qay darajada aniqlashi bilan belgilanadi. Fransiya tajribasidagi muammolar va ularning O‘zbekiston uchun ahamiyati Fransiya tajribasini faqat ijobiy jihatlari bilan baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki mamlakatda ham advokatlik kasbiga tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga kelgan. Clavel va Haeri hisobotida 18 oylik tayyorgarlikning ortiqcha cho‘zilishi, ayrim o‘quv dasturlarining universitet ta’limi bilan takrorlanishi, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish zarurati va CAPA imtihonining baholash samaradorligi muhokama qilingan[31].

Georges Teboulning 2020-yilda Gazette du Palais jurnalida chop etilgan «Quoi de neuf sur la formation initiale et continue des avocats en France? » maqolasida ham advokatlarning boshlang‘ich va uzluksiz kasbiy tayyorgarligini qayta ko‘rib chiqish zarurati yoritilgan. Muallif kasbiy tayyorgarlikni amaliyotga yo‘naltirish, CAPA imtihonini takomillashtirish va yangi advokatlarni kasbiy faoliyatining dastlabki davrida qo‘llab-quvvatlash masalalariga e’tibor qaratadi.[10] Demak, Fransiya tajribasi ikki tomonlama xulosaga olib keladi: bir tomondan, alohida kasbiy tayyorgarlik va yakuniy imtihon advokatning kasbiy layoqatini aniqlashga xizmat qiladi; ikkinchi tomondan, ushbu tayyorgarlik ortiqcha nazariylashtirilmasligi, takroriy fanlar bilan yuklanmasligi va amaliy faoliyatga yo‘naltirilishi kerak.

[31] Clavel, Sandrine; Haeri, Kami (sous la présidence de). *Rapport sur la formation des avocats*. Groupe de travail sur la formation des avocats, Direction des affaires civiles et du Sceau, Ministère de la Justice, novembre 2019 – juillet 2020. Rapport remis au garde des Sceaux le 23 octobre 2020.

Ushbu qiyosiy-huquqiy tahlilning O‘zbekiston uchun ahamiyati shundaki, stajirovka faqat advokat huzurida bo‘lish bilan cheklanmasligi, talabgorning sud va boshqa huquqiy institutlar faoliyatini ham amaliy o‘rganishini ta’minlashi kerak. Biroq Fransiyadagi 18 oylik muddatni to‘liq joriy etish shart emas. O‘zbekiston uchun stajirovkaning amaliy mazmunini kuchaytirish muhimroq.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi malaka imtihonini takomillashtirish zarurati, avvalo, amaldagi baholash mexanizmining talabgorning nazariy bilimlarini aniqlashga ustuvor yo‘naltirilgani, biroq uning mustaqil advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur amaliy va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholash imkoniyatlari yetarli darajada shakllantirilmaganligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot davomida milliy qonunchilik normalari, malaka komissiyalari faoliyatini tartibga soluvchi 3637-son Nizom hamda Qozog‘iston, Singapur va Fransiya tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan o‘rganildi. Natijada malaka imtihonini takomillashtirish faqat imtihon shakli yoki savollar sonini o‘zgartirish bilan cheklanmasligi, balki talabgorning kasbiy layoqatini aniqlashga qaratilgan yaxlit huquqiy va tashkiliy mexanizmni shakllantirishni talab qilishi asoslandi.

Birinchidan, amaldagi malaka imtihonida baholash mezonlarini yanada aniq va standartlashtirilgan shaklda belgilash zarur. 3637-son Nizomda har bir savol uchun 10 ballik baholash tizimi nazarda tutilgan bo‘lsa-da, talabgor javobining tarkibiy qismlarini yagona mezonlar asosida baholash mexanizmini rivojlantirish lozim. Shu munosabat bilan har bir savol bo‘yicha huquqiy muammoni aniqlash, tegishli normani tanlash, uni huquqiy vaziyatga tatbiq etish, asoslantirilgan xulosa chiqarish hamda javobning izchilligini baholashga qaratilgan yagona baholash varaqasini joriy etish taklif etiladi. Bunda baholash mezonlari imtihon boshlanishidan oldin tasdiqlanishi va barcha malaka komissiyalari tomonidan bir xil qo‘llanilishi kerak. Bu komissiya a’zolarining individual yondashuvlari natijalarga nomutanosib ta’sir ko‘rsatishining oldini olish hamda qabul qilingan qarorlarning asoslantirilganligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, malaka imtihonining nazariy va amaliy qismlarini alohida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Qozog‘iston tajribasi nazariy bilimlarni

kompyuterlashtirilgan test orqali, amaliy ko‘nikmalarni esa huquqiy vaziyatlarni hal qilish orqali mustaqil tekshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu asosda O‘zbekistonda amaldagi og‘zaki imtihonni saqlab qolgan holda, unga qo‘shimcha ravishda amaliy kazuslarni yechish bosqichini kiritish taklif etiladi. Bunda talabgor nafaqat qonunchilik normalarini aniqlashi, balki ularni muayyan huquqiy vaziyatga tatbiq etishi, tegishli protsessual harakatni belgilashi va asoslantirilgan huquqiy pozitsiyani shakllantirishi lozim. Amaliy bosqichda protsessual hujjat loyihasini tayyorlash topshirig‘ini ham nazarda tutish talabgorning advokatlik faoliyatiga amaliy tayyorgarligini aniqroq baholash imkonini beradi.

Uchinchidan, advokatlikka nomzodlarning amaliy tayyorgarligini baholashda stajirovka institutining mazmunini kuchaytirish lozim. Singapur va Fransiya tajribasi stajirovkaning samaradorligi uning davomiyligi bilangina emas, balki talabgor bajaradigan kasbiy vazifalar, nazorat mexanizmlari va yakuniy baholash natijalari bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Shu sababli O‘zbekistonda amaldagi uch oylik stajirovka muddatini saqlagan holda, uning yagona dasturini ishlab chiqish va talabgorning amaliy faoliyatini elektron kasbiy portfel orqali hujjatlashtirish maqsadga muvofiq. Mazkur portfelda talabgor tomonidan tayyorlangan da’vo arizalari, shikoyatlar, iltimosnomalar, huquqiy xulosalar hamda boshqa amaliy topshiriqlar qayd etilishi, stajirovka rahbari esa ularning sifati va talabgorning kasbiy ko‘nikmalarini baholashi lozim. Bu stajirovkani rasmiy talab sifatida bajariladigan jarayondan aniq kasbiy natijaga yo‘naltirilgan tayyorgarlik bosqichiga aylantiradi.

To‘rtinchidan, malaka imtihonida kasbiy etika va advokatning professional mas’uliyatiga oid bilimlarni mustaqil baholash mexanizmini joriy etish zarur. Advokatning faoliyati nafaqat qonunchilikni bilish, balki advokatlik sirini saqlash, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mijoz manfaatlarini vijdonan himoya qilish va kasbiy mustaqillikni ta’minlash majburiyatlari bilan ham tavsiflanadi. Shu sababli talabgorga advokatlik faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan axloqiy-huquqiy vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan kazuslar berilishi va uning qarori tegishli kasbiy qoidalar asosida baholanishi lozim. Bunday yondashuv advokatlik kasbiga qabul qilishda professional etikaning mustaqil malaka mezoni sifatidagi ahamiyatini kuchaytiradi.

Beshinchidan, malaka imtihonini talabgor tanlagan ixtisoslik xususiyatlariga muvofiq differensiallashtirish zarur. Amaldagi fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish hamda ma’muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish yo‘nalishlarini saqlab qolgan holda, tegishli ixtisoslik doirasida qo‘shimcha amaliy topshiriqlar berish mexanizmini joriy etish taklif qilinadi. Xususan, talabgorning korporativ, soliq, investitsiya, mehnat yoki intellektual mulk huquqi bilan bog‘liq nizolarni hal qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini baholash imkoniyatini yaratish lozim. Bu advokatlik faoliyatida ixtisoslashuvni rivojlantirish va yuridik xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchidan, malaka imtihonining amaliy bosqichida normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishga ruxsat berilgan ochiq manbali baholash mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Singapur tajribasida qo‘llaniladigan open-book imtihon modeli huquqiy axborotni yoddan takrorlashdan ko‘ra, uni muayyan vaziyatda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini aniqlashga yo‘naltirilgan. O‘zbekiston sharoitida bunday mexanizm talabgorning amaldagi qonunchilikni mustaqil topishi, tegishli huquqiy normani sharhlashi va undan asoslantirilgan yechim ishlab chiqishda foydalanishini baholash imkonini beradi. Bunda faqat ruxsat etilgan rasmiy normativ-huquqiy manbalardan foydalanish tartibi imtihon qoidalarida aniq belgilanishi lozim.

Yettinchidan, malaka komissiyalari faoliyatida baholashning shaffofligi bilan bir qatorda, qabul qilingan qarorlarning tekshirilishi va qayta ko‘rib chiqilishi kafolatlarini kuchaytirish zarur. Buning uchun imtihonning audio va videoyozuvlarini saqlash, elektron baholash natijalarini qayd etish, har bir komissiya a’zosining qo‘ygan ballarini asoslantirish hamda talabgorga o‘z natijasi yuzasidan ma’lumot olish imkoniyatini yaratish lozim. Shuningdek, baholash tartibi buzilgan yoki natijalarga e’tiroz bildirilgan hollarda shikoyatlarni ko‘rib chiqishning aniq protsessual mexanizmini ta’minlash talab etiladi. Bu malaka imtihonining nafaqat tashkiliy, balki protsessual jihatdan ham qonuniyligini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijasida ilgari surilgan takliflarning asosiy mazmuni malaka imtihonini nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, kasbiy etika va stajirovka natijalarini o‘zaro bog‘liq holda baholaydigan kompleks kasbiy layoqatni aniqlash tizimiga aylantirishdan iborat.

Mazkur takliflarni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yil 3-iyuldagi 15-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va 3637-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Nizomga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, malaka imtihonini baholashning yagona standartlarini tasdiqlash hamda stajirovkaning namunaviy dasturi va elektron kasbiy portfel yuritish tartibini ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, advokatlik faoliyatiga qabul qilishda asosiy mezon talabgorning muayyan miqdordagi nazariy savollarga javob bera olishi emas, balki uning mustaqil advokatlik faoliyatida uchraydigan huquqiy muammolarni qonuniy, asoslantirilgan va kasbiy etika talablariga muvofiq hal qila olish qobiliyati bo‘lishi lozim. Taklif etilayotgan kompleks baholash modeli advokatlik kasbiga kirish jarayonida tenglik, xolislik va shaffoflikni kuchaytirish, malakali yuridik yordam ko‘rsatish sifatini oshirish hamda advokatura institutining mustaqilligi va kasbiy salohiyatini mustahkamlash uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

I.Normativ-huquqiy hujjatlar

1.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

2.O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi 349-I-son “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-sonli “Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

4.O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyuldagi O‘RQ-701-son “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni

5.“O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizom” 2025-yil 3-iyuldagi 15-mhson buyrug‘i bilan tasdiqlangan, 2025-yil 7-iyulda 3637-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan

II.Dissertatasiya va maqolalar:

6.Матмуротов А. Малака имтиҳонини топшириш тартибини такомиллаштириш масалалари // Общество и инновации. 2021. Т. 2. №12/S. Б. 205–221. DOI: https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss12/S-pp205-221

7. Лень В.В., Лень В.В. Проблема реформирования украинской адвокатуры // Известия высших учебных заведений. Правоведение. 2005. № 1. С. 182

8. Lisfranc, Katherine. La formation des avocats français et le droit comparé. Revue internationale de droit comparé, Vol. 46, No. 3, juillet-septembre 1994, pp. 799-802

9. Jamin, Christophe. Cliniques du droit : innovation versus professionnalisation ? Recueil Dalloz Sirey de doctrine de jurisprudence et de législation, 2014, No. 11, pp. 675-681

10. De Cesseau, Jean. Rapport sur la formation des futurs avocats et des avocats en activité. Commission Formation, CNA (Conférence Nationale des Avocats)

11. Clavel, Sandrine; Haeri, Kami (sous la présidence de). Rapport sur la formation des avocats. Groupe de travail sur la formation des avocats, Direction des affaires civiles et du Sceau, Ministère de la Justice, novembre 2019 – juillet 2020. Rapport remis au garde des Sceaux le 23 octobre 2020

12. Teboul, Georges. Quoi de neuf sur la formation initiale et continue des avocats en France ? Gazette du Palais, 4 février 2020, No. 05, p. 12

III.Xalqaro hujjatlar va xorijiy qonunchilik

13.Закон Республики Казахстан от 5 июля 2018 года № 176-VI “Об адвокатской деятельности и юридической помощи” // Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан “Әділет”. Ст. 32, 38, 39

14. Приказ и.о. Министра юстиции Республики Казахстан от 28 мая 2020 года № 61 “Об утверждении Правил оказания государственных услуг по вопросам адвокатской деятельности”. Зарегистрирован в Министерстве юстиции Республики Казахстан 29 мая 2020 года № 20774 // Информационно-правовая система “Әділет”

15. Приказ Министра юстиции Республики Казахстан от 30 апреля 2026 года № 406 “О внесении изменений в приказ исполняющего обязанности Министра

юстиции Республики Казахстан от 28 мая 2020 года № 61". Введен в действие с 12 июля 2026 года

16. Правила оказания государственной услуги "Проведение аттестации лиц, претендующих на занятие адвокатской деятельностью" (приложение 1 к приказу и.о. Министра юстиции Республики Казахстан от 28 мая 2020 года № 61), в редакции от 12 июля 2026 года. 17. Закон Республики Казахстан от 5 июля 2018 года № 176-VI "Об адвокатской деятельности и юридической помощи". Ст. 39.

17. Правила оказания государственной услуги "Проведение аттестации лиц, претендующих на занятие адвокатской деятельностью". Положения о проведении комплексного компьютерного тестирования: 100 вопросов, 90 минут, проходной порог -70 процентов.

18.Правила оказания государственной услуги "Проведение аттестации лиц, претендующих на занятие адвокатской деятельностью". Положения о проверке практических навыков: 3 практические задачи, 12 вопросов, 30 минут, проходной порог - 65 процентов.

19. "Проведение аттестации лиц, претендующих на право занятия адвокатской и нотариальной деятельностью" // Департамент юстиции Акмолинской области. Официальный информационный ресурс Министерства юстиции Республики Казахстан.

20.Приказ Министра юстиции Республики Казахстан от 6 декабря 2024 года № 1007 "О внесении изменений в приказ исполняющего обязанности Министра юстиции Республики Казахстан от 28 мая 2020 года № 61" (тегишли ўзгартишлар ҳақидаги маълумот).